# Mudofaa sohasiga oid yangi atamalarni ko‘rib chiqing!

Xorijiy atamalarni o‘zbekcha muqobillariga almashtirish bo‘yicha tegishli tashkilotlar ishchi guruhlari yuborgan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Atamalar komissiyasining ishchi kengashi – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan ko‘rib chiqildi.

**1-ilova**

| T/r | So‘z va atama | Yangi so‘z va atama qo‘llanilgan manba | Yangi so‘z va atamaning ma’nosi | Yangi so‘z va atamani o‘zbek tilida ifodalovchi so‘zlar | Rasmiy iste’molga kiritish bo‘yicha taklif | Taklif kiritgan tashkilot |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Аксельбант | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Faxriy qorovul shaxsiy tarkibi va harbiy paradlar ishtirokchilarining tantanalarga kiyiladigan kiyim elementi. Tilla, kumush yoki turli rangli ipdan to‘qilgan, uchlari metall poynakli bog‘ich bo‘lib, o‘ng yelkadagi (kamdan-kam hollarda chap yelkadagi) zar pogonlar ostiga qadaladi. | Poynakli bog‘ich | **Zarhal bog‘(ich)** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 2. | Амбразура | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Ambrazura (fr. Embrasure – shinak) – himoyalanish qurilmalari va zirhli minoralardagi ochiq yoki to‘siladigan tuynuk. Ushbu inshootlarda, minoralarda o‘rnatilgan qurollar, minomyotlar, pulemyotlar, avtomatlar va boshqalardan o‘t ochish uchun mo‘ljallangan. Ambrazuraning shakli va o‘lchami qurol turi, o‘qqa tutish maydoni, og‘ish burchagi va inshoot balandligiga bog‘liq bo‘ladi. | O‘tchi tuynuk | **Shinak** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham; o‘zbek tili tarixida qo‘llangan) | Mudofaa vazirligi |
| 3. | Атака | Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. | Ataka (fr. attaque – hamla) – dushmanni yakson qilish maqsadida kuchli o‘t ochish bilan birgalikda qismlar, bo‘linmalar, qo‘shilmalar, shuningdek, samolyotlar, vertolyotlar va ularning guruhlarining jangovar tartibdagi shiddatli harakatidir. Ataka motoo‘qchi qo‘shinlar, tank, havo, havo-hujumi va boshqa usullar bilan farqlanadi. | Hamla | **Hamla** (bu ma’noda o‘zbek tilida faol qo‘llanadi) | Mudofaa vazirligi |
| 4. | Барабан | Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. | Nog‘ora (baraban) – saf tayyorgarligi mashg‘ulotlari va safda turib bajariladigan harbiycha harakatlar mobaynida qo‘llaniladigan cholg‘u asbobi. | Nog‘ora | **Nog‘ora** (bu ma’noda o‘zbek tilida qo‘llanadi) | Mudofaa vazirligi |
| 5. | Барабанчи | Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. | Nog‘orachi (barabanchi) – saf tayyorgarligi mashg‘ulotlari va safda turib bajariladigan harbiycha harakatlar mobaynida | Nog‘orachi | **Nog‘orachi** (terminologik | Mudofaa vazirligi |

2

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | qo‘llaniladigan nog‘orani chalishga o‘rgatilgan harbiy xizmatchi. | | tushunchani aniq ifodalaydi) | |
| 6. | Блиндаж | Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. | Dala boshpanasi (blindaj) – 4-8 nafar shaxsiy tarkib uchun mo‘ljallangan pana joy turi; o‘q, snaryaddan himoyalov yopiq istehkom. | Dala boshpanasi, blindaj | **Panajoy** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 7. | Блокада | Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. | Blokada (ingl. blokade – qamal qilmoq, qurshamoq) – harbiy harakatlarni amalga oshirishning alohida shakli bo‘lib, qamal qilinuvchi obyekt tashqi aloqalarga kirishishning oldini olish maqsadida ajratib qo‘yilishi tushuniladi. Qamallar: quruqlik qamali, dengiz qamali va havo qamaliga ajratiladi. | Qamal | **Qamal** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Mudofaa vazirligi |
| 8. | Блокпост | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Blokpost (rus.) – qurollangan qo‘riqchilar bilan mustahkamlangan to‘suvchi va nazorat-o‘tkazuvchi joy. U aholi manzillari, bosib olingan yoki vaqtincha egallangan hududlarda tashkil qiliadi. | To‘siq post, qulf post | **To‘siqpost** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 9. | Бронежилет | Mudofaa vazirligi qo‘shinlarini kiyim-kechak bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. | Bronejilet (rus.) – tanani o‘q va snaryad parchalaridan himoya qiluvchi vosita. Zirhli kamzul o‘q va snaryadlarning ta’siriga qarshilik ko‘rsatadigan chidamli va snaryadlar ko‘p martalab tekkanda yemirilmaydigan bo‘lishi lozim. | Zirhli kamzul, zirhli nimcha | **Zirhnimcha** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 10. | Вешмешок | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Veshmeshok (rus.) – harbiylarning zarur ashyolarni o‘zi bilan birga olib yurish uchun mo‘ljallangan xalta. | To‘rva | **Yukxalta** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 11. | Гауптвахта | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Gauptvaxta (nem. *hayptwache* – bosh qorovul) – hibsga olingan harbiy xizmatchilarni tutib turish uchun mo‘ljallangan maxsus bino. Gauptvaxtada intizomiy tartibda qamalgan, harbiy sud tomonidan gauptvaxtada tutilishga hukm | Gauptvaxta, tunak, tutuqxona | **Tutuqxona** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |

3

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | qilingan harbiy xizmatchilar tutib turiladi. | | | |
| 12. | Горн | Mudofaa vazirligi qo‘shinlarini kiyim-kechak bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. | Gorn (rus.) – puflab chalinadigan musiqa asbobi. | Burg‘u | **Burg‘u** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Mudofaa vazirligi |
| 13. | Горнчи | Mudofaa vazirligi qo‘shinlarini kiyim-kechak bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. | Burg‘u chaluvchi harbiy xizmatchi. | Burg‘uchi | **Burg‘uchi** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 14. | Диверсант | Mudofaa vazirligi qo‘shinlarini kiyim-kechak bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. | Diversant (ing.) – qo‘poruvchilik (diversiya)ni amalga oshiruvchi shaxs. | Qo‘poruvchi | **Qo‘poruvchi** (bu ma’noda o‘zbek tilida faol qo‘llanadi) | Mudofaa vazirligi |
| 15. | Диверсия | Mudofaa vazirligi qo‘shinlarini kiyim-kechak bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. | Diversiya (lot. diversio – diqqatni tortish, chalg‘itish) – dushman e’tiborini asosiy operatsiyadan chalg‘itib, uni zaiflashtirishga qaratilgan harakat. U portlatish, o‘t qo‘yish yoki boshqa shaklda buzish yoki shikastlantirish, yoppasiga zaharlash yoki epidemiya va epizootiya tarqatish (hayvonlarga kasallik yuqtirish) va h.k. | Qo‘poruvchilik | **Qo‘poruvchilik** (bu ma’noda o‘zbek tilida faol qo‘llanadi) | Mudofaa vazirligi |
| 16. | Дозор | Mudofaa vazirligi qo‘shinlarini kiyim-kechak bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. | Ilg‘or xabarchilar guruhi – dushman va hudud haqida ma’lumotlar izlab topish uchun mo‘ljallangan jangovar bo‘linma. Turlari:<br>– jangovar ilg‘or xabarchilar guruhi;<br>– alohida ilg‘or xabarchilar guruhi;<br>– ofitserlar tarkibidan tuzilgan ilg‘or xabarchilar guruhi. | Ilg‘or xabarchilar guruhi, dozor, ilg‘or guruh | **Erovul** (bu ma’noda o‘zbek tili tarixida qo‘llangan; terminologik tushunchani aniq ifodalaydi) | Mudofaa vazirligi |
| 17. | ДОТ (Долговременная огневая точка) | Mudofaa vazirligi qo‘shinlarini kiyim-kechak bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. | Uzoq muddatli mudofaa va qo‘riqlanayotgan joydan otish, portlatish uchun mo‘ljallangan, ayni paytda, portlash, yong‘inga bardoshli qilib qurilgan kichik istehkom. | UMMON (uzoq muddatga mo‘ljallangan otish nuqtasi); MJON | **UMMON** (uzoq muddatga mo‘ljallangan otish nuqtasi); **MJON** | Mudofaa vazirligi |

7

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 35. | Тревога | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Trevoga (rus. тревога – xavotir, tashvish) – 1) qismni, kemani jangovar vazifani bajarishga tayyorlash maqsadida zudlik bilan jangovar shaylikka keltirish. Jangovar trevoga bo'yicha ko'tarish tadbirlari komandirlar, boshliqlar tomonidan o'tkaziladi; 2) qo'shinlarni jangovar trevoga bo'yicha ko'tarish uchun, aloqa va xabarlashning texnik vositalari orqali, bo'linmada – ovoz bilan beriladigan signal. | Bong | **Bong** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Mudofaa vazirligi |
| 36. | Тренчик (фуражканинг занжири) | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Trenchik (rus.) – harbiy bosh kiyimning old qismidagi zanjir. | Zanjirbog' | **Zanjirbog'** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 37. | Трибунал | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Tribunal (lot. tribunalis – xalq vakili) – sud hay'ati; favqulodda yoki ixtisoslashgan sud, unda asosan harbiy xizmatchilar, harbiyni o'tovchilar jinoyati bo'yicha ishlar ko'riladi | Harbiy mahkama | **Harbiy mahkama** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 38. | Фортификация | Mudofaa vazirining tegishli buyruqlari. | Fortifikatsiya (lot. fortifi catio – istehkom) – 1) fortifikatsiyali inshootlarni qurish va harbiy maqsadda foydalanishni o'z ichiga olgan harbiy-muhandislik sohasi. 2) istehkomli inshootlar – jangda qurol va harbiy texnikani ko'zdan yashirish, ulardan yanada unumliroq foydalanish, boshqaruv punktlarini joylashtirish, shuningdek, qo'shinlarni, aholi hamda front ortidagi obyektlarni dushman qurollari zarbasidan himoya qilish uchun qurilgan inshootlar. | Istehkom, fortifikatsiya | **Istehkom** (terminologik tushunchani ifodalay oladi) | Mudofaa vazirligi |
| 39. | Фуражка | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Furajka (rus.) – harbiy bosh kiyim. | Bo'rk | **Bo'rk** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Mudofaa vazirligi |

8

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 40. | Шеврон | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Shevron (fr. balandlik, V shakl) – harbiy kiyimning turli qismlari, asosan yenglaridagi yopishtirma uqa | Uqa | **Uqa** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Mudofaa vazirligi |
| 41. | Эмблема | Mudofaa vazirligining normativ va texnik hujjatlari. | Emblema (lot. emblema – ramz, nishon) – harbiylarning qo'shin turiga tegishliligi bo'yicha belgisi. | Tanuq | **Tanuq** (terminologik tushunchani ifodalay oladi; shaklan ixcham) | Mudofaa vazirligi |

Ishchi organ galdagi taqdim etilayotgan atamalarning milliy muqobillari bo'yicha boshqa fikr va mulohazalarni ham mamnuniyat bilan qabul qiladi va ko'rib chiqadi.

O'z fikr-mulohazalaringizni izohda yozib qoldiring!

Tilimizga befarq bo'lmang!

Takliflarni quyidagi havola orqali ham yozib qoldirishingiz mumkin:

https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSfrtSABLnNOeierPLN9aLz_G5ajtdO1l5awSTwvhMHXBfg4Rg/viewform